



OILAVIY POLKLINIKALAR HAMSHIRALARINING ISH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA IDENTIFIKATSIYALASH

Andijon mashinasozlik instituti
“Mashinasozlik ishlab chiqarishini avtomatlashtirish”
kafedrası katta o‘qituvchisi t.f.f.d., (PhD)

Igamberdiyev Anvarjon Uktamovich,

Andijon mashinasozlik instituti
“Mashinasozlik ishlab chiqarishini avtomatlashtirish”
kafedrası o‘qituvchisi

Alijonov Xabibullo Avazbek o‘g‘li,

Andijon mashinasozlik instituti

IB va KT fakulteti talabasi

Sobirov Umidjon,

Andijon mashinasozlik instituti

IB va KT fakulteti talabasi

Solijonov Ahmadali Yasharjon o‘g‘li,

Tel: +998940281001

Email: umidjonsobirov612@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ustuvor rivojlantirish masalasi muhokama qilinadi. Bunda aholiga ambulatoriya xizmati ko‘rsatishda ko‘plab dolzarb muammolar mavjud. Ular eski ishlash usulida bo‘lib, bemorlar oqimini boshqarish tizimiga va tibbiy hujjatlarni qayta ishlashga ko‘p vaqt sarflanadi, bu esa bemorlarning tibbiy yordam sifati pastligidan noroziligiga olib kelad, bemorlar tomonidan shikoyat va norozilikni keltirib chiqaradi

Kalit so‘zlar: aholi, polklinika, tibbiy yordam, raqamlashtirish, qog‘ozbozlik, loyiha, dastur, google sheet, frontend..

Kirish. An’anaviy hujjat aylanishiga asoslangan diagnostika va davolash jarayonini tashkil etish amaliyoti uning sifatini oshirishga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Diagnostika va davolash jarayonining asosiy ishtirokchisi, davolovchi shifokor ko‘pincha bemor bilan ishlash uchun ajratilgan vaqt hisobiga davolash jarayonining juda ko‘p sonli hujjatlarini to‘ldirishi, buxgalteriya hisobi va hisobot hujjatlarini tuzishi kerak[1]. Hamshiralar davolovchi shifokorning shoshqaloqlik va beparvolik bilan yozilgan yozuvlari va retseptlarini saralashlari va kerakli tibbiy ko‘rsatmalarni bajarish uchun o‘zlarining "buxgalteriya hisobi" ni yuritishlari kerak. Maslahatchilar jadvali, diagnostika xizmatlari va bemorning diagnostika va davolash muolajalari bilan bog‘liq ish yukining nomuvofiqligi bemorni tekshirish uchun zarur bo‘lgan vaqtni ko‘paytirishga va natijada uning kasalxonada bo‘lish muddatini uzaytirishga olib keladi. qimmat diagnostika uskunalaridan etarli darajada foydalanmaslik, muntazam hujjat aylanishi,

hujjatlarning yo‘qolgan nusxalari, axborot izlashning mukammal usullarining yo‘qligi, ish samaradorligi va sifatini pasaytiradigan alohida tarkibiy bo‘linmalar ishidagi izchillik o‘tmishga aylanib bormoqda[2].

Shunday ekan maqolada bazi muammolarni yechimi bo‘la oladigan va ularga qulaylik yaratib bera oladigan tizim yaratilish jarayoni keltirilgan.

Adabiyot tahlili va metodologiya.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili qilinganda, bu muammo bo‘yicha o‘zbek tilida adabiyotlar mavjud emasligi ayon bo‘ldi. Biz chet el olimlarining tahlilaridan va usullaridan foydalangan holda loyihani ishlab chiqdik. Bu mavzu asosida quyidagi rus olimlari ish olib borgani ma‘lum bo‘ldi: Ж. А. Иржанов “Обоснование эффективности внедрения информационных технологий в условиях многопрофильной поликлиники”, О.А. Манерова, М.А. Кубраков доцент, Н.А. Касимовская. “Организация амбулаторно-



поликлинической помощи” Loyihaning hozirda mavjud boʻlgan dastur yoki variantlari mavjud emas, faqat qisman vazifalarini bajaruvchi tizimlar mavjud. Loyiha oʻzida koʻplab yangiliklar hamda sohani bir dasturga umumlashtirgan va yangi xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Natijalar. Hozirgi kunga kelib har bir davlat jumladan bizni yurtimizda ham meditsina sohasiga boʻlgan eʼtibor katta tezlik bilan kuchaymoqda, bazi muammolarni yechimi boʻla oladigan va ularga qulaylik yaratib bera oladigan tizim yaratishga harakat boshlaganmiz. Loyihamizda oʻzida koʻplab yangiliklar hamda sohani bir dasturga umumlashtirgan va yangi xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Muhokama. Bu loyihani qilishdan maqsad Andijon viloyatidagi barcha tibbiyot muassasalari raqamlashtiriladi. Etiborlisi viloyatimizda hozirga kelib 3, 338 ming kishi yashaydi va ular toʻgʻrisidagi tibbiy maʼlumotnomalar bazasi yaratiladi. Bu sohani raqamlashtirish va shu orqali rivojlanishni jadallashtirish, ortiqcha qogʻozbozlik hamda ovoragarchilikga chek qoʻyish asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Bu esa hozirda davr talabi hisoblanadi. Hozirda hujjat yuritishda eski usullar oʻzini oqlamay qoʻydi ayniqsa tibbiyot sohasida[3]. Bilamizki aholi eng koʻp murojat qiladigan soha albatta tibbiyot. Qatorlab navbat kutish bemorlarga, honadonlarga borib qayta qayta tibbiy maʼlumotlarni shakllantirish esa tibbiyot hodimlariga qiyinchilik tugʻdirardi. Endi esa ushbu masalalarga yechim tayyor. Ushbu elektron dastur orqali endi markaziy polklinikadan turib patronaj va doylar uchun kunlik, oylik hamda yillik rejalar ham belgilab beriladi, ular esa shu rejalar asosida oʻz faoliyatini shakllantiradilar. Bu esa ularga judaham qulay tizim hisoblanadi. Hozirda har 1000 nafar aholiga 1 ta patronaj hamshira, har

2000 nafar aholiga umumiy amaliyot shifokori hamda har 4000 nafar aholiga 1 ta doya xizmat koʻrsatadi. Tabiiyki qogʻoz shaklida ish olib borilgan paytda kunlik rejalarga ulgurish qiyin kechadi, bir ish ikki boʻladi. Bu dastur esa shunday qiyinchiliklarni yoʻqqa chiqarib mehnat unumdorligini oshiradi[4].

Aytib oʻtishimiz kerakki ushbu platforma aloqa yahshi boʻlmagan hududlarda offline tizimda ham ishlashga moʻljallangan.

Oilavy polklinik hamshiralarning ish jarayonini avtomatlashtirishning algoritmi asosida Frontend dasturiy qismini tuzish.

Hamshiralarning ish jarayonini Frontend qismini yaratish uchun HTML, CSS va JavaScript yoki kerak boʻlsa JavaScript kutubxonalarini yoki fremvorklaridan foydalanamiz. Asosan, Google Apps Script'da yaratilgan onEdit funktsiyalari Google Spreadsheets'da har qanday oʻzgarishlar sodir boʻlganda ishga tushadi. Veb-interfeysda siz Google Spreadsheets maʼlumotlarini namoyish qilish, tahrirlash yoki yangi maʼlumotlar kiritish uchun kod yozib olinadi.

Google Apps Script bilan ishlaydigan veb-interfeys yaratishda biz quyidagi qadamlarni bajariladi:

HTML faylni yaratish: Bu fayl veb-interfeys koʻrinishini va strukturini belgilaydi. HTML elementlari va razmetka orqali interfeysingizni loyiha talablarimizga moslashtiriladi.

CSS bilan dizayn qilish: CSS yordamida HTML elementlarini chiroyli qilib bezash va ularga oʻziga xos uslub berib chiqiladi[5].


JavaScriptda yozish: JavaScript bilan Google Spreadsheets'dagi maʼlumotlarni olish, tahrirlash yoki yangi yozuvlar qoʻshish amallarini yaratiladi va bajariladi.


Yuqorida dasturning Frontend qismi tushunchalar berildi, endi asosiy qism haqida quyida maʼlumot beriladi.



← Управление досту... 👤 🔗

Пользователи, у которых есть доступ

 dehqonovtavakkaljon
dehqonovtavakkaljon@gmail.com
Владелец


 Umidjon Sobirov
umidjonsobirov612@gmail.com
Редактор (владельца пока нет)

[Принять права собственности?](#)

 umarovasaodatxon39
umarovasaodatxon39@gmail.com
Редактор

Общий доступ

 Пользователи, у которых есть ссылка
Просматривать документ могут все в интернете, у кого есть эта ссылка
[Изменить](#)



*1- rasm. Adminlar va ularning akkauntlari.
Bu qismda polklinikada katta vrachga admin berilgan bo'ladi. Shifokkor o'zining kompyuterida patranajchilarga kunlik, oylik va yillik ish rejalarini tuzib chiqadi. Patranaj hamshiralarning ishini avtomatlashtirish loyihasining dasturiy qismi. Bizda bunga shunchaki server orqali google tablitsaga ulangan.*



	A	C	D	E	F	G	
1				Аҳоли сони	Хонадон	18,5 дан 24,9 гача	Аёллар, те
2							
4		965	168	965	168	940	
5							
6		Аҳоли сони	Хонадон сони	Курган куни	А/Б	Келгуси курув	Фамилия (ТҶУЛИҚ ТҶУ)
7		965	168	737	612	30	
8							
9	✓	1	1	2023-09-04	120/80		Назирова Ба
10	✓	1		2023-09-04	120/80		Назирова М
11	✓	1		2023-09-04	120/80		Назирова Ш
12	✓	1			120/80	2023-10-14	Назирова Гу
13	✓	1		2023-09-04			Voходirov И
14	✓	1		2023-09-04			Назирова То
15	✓	1			110/70		Назирова Ми
16	✓	1			120/80		Назирова Ша
17	✓	1					Баходиржон
18	✓	1	1	2023-09-04	110/75		Ёкубова Соли
19	✓	1		2023-09-04	130/90		Ёкубова Зам
20	✓	1			120/80		Ёкубова Феру
21	✓	1		2023-09-04	120/80		Ёкубова Мах
22	✓	1		2023-09-04			Солижонова
23	✓	1		2023-09-04			Солижонова
24	✓	1		2023-09-04			Ёкубова Ахад
25	✓	1	1	2023-09-08	120/80		Хайназарова
26	✓	1		2023-09-04	120/80		Хайназарова
27	✓	1		2023-09-04	120/80		Хайназарова
28	✓	1		2023-09-04			Бахтиёржон
29	✓	1		2023-09-04			Бахтиёржон
30	✓	1			120/80		Хайназаров
31	✓	1			120/80		Хайназаров
32	✓	1					Бахтиёржон
33	✓	1					Бахтиёржон
34	✓	1	1	2023-09-08	120/80		Усмонов Ор
35	✓	1		2023-09-04	120/80		Усмонова О
36	✓	1		2023-09-04	120/80		Олимов Дос
37	✓	1		2023-09-04	120/80		Олимова Од
38	✓	1		2023-09-04			Ортиқалиев
39	✓	1		2023-09-04			Ортиқалиев
40	✓	1			120/80		Олимов Ма
41	✓	1	1	2023-09-08	120/80		Тоҳтасинов
42	✓	1		2023-09-04	110/80		Тоҳтасинов
43	✓	1		2023-09-04	120/80		Тоҳтасинов
44	✓	1		2023-09-04			Одилов Меҳ
45	✓	1		2023-09-04			Одилов Зухр
46	✓	1		2023-09-04			Одилов Ахл
47	✓	1	1	2023-09-08	130/90		Аскарв Эвр
48	✓	1		2023-09-04	120/80		Аскарвва Аз
49	✓	1		2023-09-04	120/80		Аскарв Ил
50	✓	1		2023-09-04	120/80		Аскарвва Зу
51	✓	1		2023-09-04			Эркинов Му

2-rasm. Aholi to'g'risidagi umumiy tibbiy profilaktik ma'lumotlar jadvali

Bunda tablitsaga kirganimizda umumiy ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Hududiy poliklinikada aholining birlamchi va umumiy kasallanish ko'rsatkichlari va uy sharoitida o'lim ko'rsatkichlari baholandi. Tashriflar tahlili asosida poliklinika ishiga FAN, JAMIYAT VA INNOVAYSIYALAR Volume 2 Issue 11 May 2024

axborot tizimlari joriy etilishidan oldin va keyin ambulator yordam ko'rsatish hajmi aniqlandi. Aholining vrachlar qabuliga elektron yozish tizimi joriy etilganidan qoniqish darajasi, mehnatga layoqatli yoshdagi va mehnatga layoqatli yoshdan oshgan shaxslar fikrida axborot



texnologiyalarini joriy etish ustuvorligi hamda aholining qoniqish indeksi baholandi. belgilangan edi. Xronometrik tadqiqotlar, Shahrixon tumanidagi oilaviy polklinik shifokorlar va bosh hamshiralarning fikr-mulohazalari asosida faoliyat yuritayotgan axborot tizimlarining samaradorligi isbotlangan.

Ushbu loyiha ishlab chiqilgandan so'ng tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Tegishli tashkilotga ma'qul kelib, Shahrixon tumanidagi oilaviy polklinikada tajriba sifatida test rejimida ishlamoqda. Test rejimi muvaffaqiyatli yakunlansa Respublika

miqiyosidagi tibbiyot sohasida keng qo'llaniladi. Chunki hozirgi kunda tibbiyot sohasi tezlik bilan rivojlanmoqda. Ushbu loyiha ish jarayoni ancha yengilashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari IT sohasiga qaratilgan e'tibor va imkoniyatlar loyihaning rivojlanishiga va yaxshi natijaga erishishiga asos bo'ladi

Loyihani keng ko'lamda ishga tushirish uchun: Google sheetda tablisa yaratish uchun, Google sheetni mobile ilovaga (Android va IOS)ga moslashtirish, Aholiga SMS jo'natish, telegram bot orqali hizmat sifatini baholash, Grafik dizayner kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Oqilov Azizbek, Oripov Shoxruxmirzo, Eshonxodjayev Hokimjon Xotamjon o'g'li, & Sobirov Anvarjon Sobirov. (2022). Remote Control of Food Storage Parameters Based on the Database. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 9, 29–32. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/1872>

2. Sobirov Anvarjon Muxammadjon O'G'Li, . (2023). AN INTELLECTUAL SYSTEM OF MICROCLIMATE CONTROL: REVOLUTIONIZING COMFORT AND EFFICIENCY. *The American Journal of Engineering and Technology*, 5(11), 56–64. <https://doi.org/10.37547/tajet/Volume05Issue11-09>

3. Muxammadjon o'g'li, S. A. (2023). OMBORXONA MIKROIQLIMINI BOSHQARISHDA NOQAT'IY MANTIQQ QOIDALAR BAZASINI ISHLAB CHIQUISH. *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 253–257. <https://michascience.com/index.php/mrmri/article/view/112>

4. Sobirov Anvarjon, & Xolmirzayeva Ozoda. (2024). TAYYOR MAHSULOTLARNI VAGONLARGA YUKLASHNI MOBIL AVTOMATLASHTIRISHDAGI TEXNIK XUSUSIYATLAR. *FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR*, 1(10), 79–81. Retrieved from <https://michascience.com/index.php/fji/article/view/244>

5. Sobirov Anvarjon Muxammadjon, & Inomjonov Muxamadjon. (2024). MOBILE APP DEVELOPMENT FOR PHOTO AND VIDEO REPORTS VIA PRODUCT IDENTIFICATION. *FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR*, 1(10), 75–78. Retrieved from <https://michascience.com/index.php/fji/article/view/243>

6. А. А. Мелякова, “Совершенствование системы амбулаторно-поликлинической помощи взрослому населению” г. Владивостока 2006 год,

7. Г. С. Гагаулина, “Медико-организационные аспекты управления деятельностью детских поликлиник с использованием электронной медицинской карты” 2012 год,

8. Коваленко, В. В. Проектирование информационных систем. - М.: Форум, 2012.